

AMALIY LEKSIKOGRAFIYA

Mamanazarova Gulzoda

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti

Amaliy filologiya yo'nalishi 222-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7816685>

Annotatsiya: Bugungi kunda yurtimizda tilga katta e'tibor qaratilayotgan yurtda yashayapmiz. Bundan ko'rinib turibdiki; tilimizda yangi o'zgarishlar sezilmoqda. Yangi so'zlar (neologizmlar) o'zlashmasi, uni to'g'ri qo'llashga esa e'tibor bermayapmiz. Biz avvalo so'zlarimizdagi termin, neologizmlarni ma'nosini bilib uni qo'llashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Nafaqat neologizmlar: sheva, argon, jargon kabi so'lar bilan tilimizni adabiylikiga putur yetkazmasligimiz kerak.

Kalit so'zlar: neologizmlar, lug'at, korpus, sheva, izohli lug'at, dialektologiya, ideografik lug'atlar, qomusiy va filologik, etimologik, ters, ideografik, elektron lug'atlar.

Leksika-lug'at, amaliy lug'atchilikdir. Leksikografiya ya'ni lug'atchilik hozirgi kunda tilshunoslar kuntartibining bosh ro'yxatidan joy olgan. Buning sababi; har bir davlatning o'z "Izohli lug'ati" shakillantiriladi va davlat hududida ishlatiladigan va muomalada bo'lgan so'zlarning barchasi ushbu lug'atda izohlanadi. Boshqa tillarni o'rganishda esa bizga "bir tilli, ikki va ko'p tilli lug'atlar" bevosita kerak bo'ladi. Lug'at- alifbo tartibidagi so'zlar to'plami, izohlari va boshqa tillarga tarjimasidir degan Orjogefning "Tilshunoslik terminlari izohli lug'atida" qayd etiladi. Har bir tilning milliyligi, o'ziga xosligi, madaniy xususiyatlari uning ideografik lug'atlarda aks etadi. Ideografik lug'atlar- til belgilar tizimi bo'lib moddiy yoki nomoddiy tushunchalarni aks etadi. O'zbek yili ideografik lug'atlari semantik yaqinlik asosida yuzaga keladi. Amerikaning Pensilvaniya shahrining Braun universitetida korpus shakillandi va ishlab chiqildi. Leksikografiya fanida esa bu juda asqotti, ya'ni Leksikografiyada katta hajimli lug'atlar uchun ayni muddao buldi. Leksikografiyani shakillantirib vujudga keltirgan Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'ati- at turk" asari lug'atshunoslikka asoslangan. O'zbek tilshunosligi fani Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati- at turk" asari bilan boshlanadi. Bu asar 1914- yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan. Mahmud Koshg'ariy Chindan Rungacha kezib chiqib o'sha davlatlar aholisining so'zini o'rgangan. 1939- yilda Anqarada Besim Atalay tarjimasida turk tilida bosib chiqariladi. Olim S. Mutalilboy devon tarjimasi ustida 1960-1963- yillar davomida uch tomda o'zbek tilida nashr qildi. "Devonu lug'ati- at turk" da yetti yarim ming so'z sakkiz bo'limga ajratib izohlangan. Bu lug'at esa Mahmud Koshg'ariyning 30 yil mobaynida umrini yurib lug'at tuzishga sarflashiga to'g'ri keldi. Bundan ko'rinib turibdiki; lug'at tuzish bir kishining ishi emas. Bu jamoaviy kuchni talab etadi. Lug'atlar, asosan, ikki turga bo'linadi: qomusiy (ensiklopedik) va filologik. Qomusiy lug'atlarda fan, texnika va madaniyatning barcha sohalarning oid tushunchalar izohlanadi. Ularda tabiat hodisalari, ijtimoiy hayotdagi voqealar, mashhur kishilar haqida ma'lumotlar beriladi. Filologik lug'atlarda asosiy e'tbor so'zga yoki so'z birikmasiga beriladi va ular har tomonlama izohlanadi. Bunday lug'atlar ham alifbo tartibda tuziladi va izohlanadigan so'z yoki so'z birikmasi sarlavha sifatida keltiriladi. Hozirgi kunda eng yaxshi lug'at va maktab darsliklariga kiritilgan bu Azim Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" misol bo'la oladi. Etimologik lug'atlarda so'zlarning kelib chiqishi, ularning dastlabki shakli va ma'nosi, til taraqqiyoti davomida ularda

yuz bergan o'zgarishlar izohlanadi. Bizning fakultetda ham lug'atlar tuzgan ustozlarimiz bor. Asqar Eshmo'minov "O'zbek tilining sinonimlar lug'ati" bazasi, Gulchehra Begmatova "Ideoma" lar bazasini yaratdi. Anvar Omonturdiyevning "Efemizmlar,, bo'yicha amalga oshirgan, "Bir so'z lug'ati" da esa o'lmoq so'zining 500 ta sinonimini topgan, O'rol Xoliyorovning "So'z tarkibi lug'ati" ni yaratganlar bundan kurinib turibdiki, o'zbek tilining ham boyib borishini ushbu lug'atlarda aks etadi.

Bugungi kunda lug'at tuzish murakkablashib bormoqda. Lug'atlarga ehtiyoj ortgan sari lug'atlar ustida ishlash va oson topish maqsadida turli metodlardan foydalanilmoqda. Bugungi davr axborot- texnologiya davri bo'lganligi sababli hamma kompyuter va smartfonlardan foydalanadi. Shu sababli lug'atlarni kitoblardan varaqlab izlagandan ko'ra elektron izlaganni afzal ko'rishadi. Shunga qarab tilshunos olimlar ham lug'atlarnielektron variantini ishlab chiqishmoqdalar. Izlab ko'rilyotgan so'zlar esa tez va oson, vaqtni ham tejashga asqotmoqda. Bu elektron lug'at nafaqat yoshlarga balki ustozlarga, kurs ishi, maqola va desirtatsiya yozayotganlar uchun ham vaqtini, ham naqtini tejashmoqda. Elektron lug'atlarining ham ustun tomoni shunda. Lekin bizning o'zbek tilida hali bu lug'atlar to'liq shakillanmagan. Shutufayli ham googlega tarjima sifatida tashlagan matnlarimiz sifati yaxshi chiqmadi. Biz yosh avlod esa bunga qo'limizdan kelgancha yordam berishimiz darkor.

Ters (chappa) lug'at deb ham ataladi. Bu lug'atning boshqa lug'atlardan farqi noodatiyligidir. Hamma lug'atlarni mavzu, alifbo tartibida izlasak bu lug'atni esa chap tomonidan izlanadi. Masalan : Arab tilidan o'zlashgan so'zlar bo'lsa uni chap tarafdin alifbo tartibida joylashtirilgan bo'ladi. Matbaa,mutolaa kabilari shular jumlasidandir. Ideografik lug'atlar- inglizcha (ideo-g'oya, grapho- tasvirlayman) degan ma'noni angaltadi. Bu lug'at turi bugungi kunda bizning o'zbek yilida yo'q. Ammo ingliz va rus tillarida endi rivojlanmoqda. Bu lug'atning boshqa lug'atlardan ustunligi; gap nima haqida ketayotganligini tassavur qilishga yordam beradi. Masalan: limon so'zini eshitganimda uning sariq rangdaligi va sho'rqligini tassavur qilib etimiz jimirlab ketadi. Bu lug'atning ustun tomoni ham shudadir. Tassavur qila olishidadir. Kundalik hayotimizda doimgi so'zlarimizga aylangan neologizmlarimizni ma'nosini bilishimiz uchun ham bu Lug'atshunoslik bizga juda zarur. Shevalar ustida ish olib boriladigan bo'lim nomi dealiktologiya sanaladi. Bu bo'lim ham bizga zarur hisoblanadi. Chunki bir O'zbekiston hududi bo'yicha uchta lahja bor. Shu lahjalar ma'no mazmunini yoritib berish uchun xizmat qiladi.

References:

- 1.I.Yo'ldoshev,O'.Sharipova.Tilshunoslik asoslari.-T.,2007 B-123.
- 2.A.Sodiqov,A.Abduazizov,M.Irisqulov.Tilshunoslikka kirish.-T.,1981.
- 3.I.Qo'chqortoyev,R.Qo'chqortoyeva.Tilshunoslikka kirish.-T.,1975.
- 4.A.A.Abduazizov.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-T.,2010.B-166.
- 5.corpara.uz
- 6.http://uzschool corpara.uz